# Demografiya va mehnat bozori

**2018 yil I chorak**

**Doimiy aholi soni**

*(2018 yil 1aprel` holatiga, ming kishi)*

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2018 yilning 1 aprel` holatiga respublika doimiy aholisi soni 1847,6 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 5,3 ming kishiga yoki 100,3 foizga ko`paydi. 2018yil yanvar`-martda migratsiya sal`dosi, dastlabki ma`lumotlarga ko`ra -770 kishini tashkil qildi.

**2018 yil yanvar`-martda aholining tabiiy harakati**

**Tug`ilish darajasi.** 2018 yil yanvar`-martda tug`ilganlar soni 7920 kishini tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (7885 kishi) nisbatan 35 kishiga ko`p yoki 100,4 foizni tashkil etdi. Tug`ilish koeffitsienti mos ravishda 17,4 promilleni tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (17,6 promille) nisbatan 0,2 promillega kamaydi.

Tug`ilish darajasining ko`payishi respublikaning deyarli barcha hududlarida qayd etildi. Bu ko`rsatkichning yuqori darajasi Amudaryo (15,2 dan

17,0 promillega), Nukus shahri (16,6 dan 17,8 ga), To`rtko`l (17,9 dan 18,9 ga), Chimboy (17,4 dan 17,5 ga) tumanlarida kuzatildi.

**O`lim darajasi.** 2018 yilning yanvar`-martida o`lganlar soni 1893 kishini tashkil qildi va 2017 yilning shu davriga (1973 kishi) nisbatan 80 kishiga yoki 95,9 foizni tashkil qildi. Mos ravishda o`lim koeffitsienti 4,2 promilleni tashkil qildi (2017 yil yanvar`-martida – 4,4 promille).

O`lganlar sonining kamayishi Qonliko`l (5,1 dan 3,4 promillega), Taxtako`pir (6,2 dan 4,7 ga), Taxiatosh (5,6 dan 4,2 ga), va Chimboy (5,1 dan 4,1 ga) tumanlarida kuzatildi. Eng ko`p o`lim hollari Nukus tumani (5,1 promille), eng kam o`lim holatlari Shumanay(3,2 promille) tumanlarida kuzatildi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsientlari**
*(yanvar`-mart oylarida)*

*(1000 aholi soniga)*

| | *Tug`ilganlar* | | *O`lganlar* | | *Aholining tabiiy o`sishi* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *2017y.* | *2018y.* | *2017y.* | *2018y.* | *2017y.* | *2018y.* |
| **Qoraqalpog`iston Respublikasi** | **17,6** | **17,4** | **4,4** | **4,2** | **13,2** | **13,2** |
| Nukus sh. | 16,6 | 17,8 | 4,6 | 4,2 | 12,0 | 13,6 |
| *tumanlar:* | | | | | | |
| Amudaryo | 15,2 | 17,0 | 4,1 | 4,2 | 11,1 | 12,8 |
| Beruniy | 19,7 | 19,2 | 4,4 | 4,2 | 15,3 | 15,0 |
| Qonliko`l | 18,0 | 17,4 | 5,1 | 3,4 | 12,9 | 14,0 |
| Qorao`zak | 17,0 | 16,5 | 4,1 | 4,8 | 12,9 | 11,7 |
| Kegeyli | 16,1 | 15,1 | 4,7 | 4,7 | 11,4 | 10,4 |
| Qo`ng`irot | 19,0 | 16,8 | 4,4 | 4,8 | 14,6 | 12,0 |
| Mo`ynoq | 15,5 | 13,8 | 4,2 | 5,2 | 11,3 | 8,6 |
| Nukus | 22,1 | 21,3 | 3,6 | 5,1 | 18,5 | 16,2 |
| Taxiatosh | 16,4 | 14,6 | 5,6 | 4,2 | 10,8 | 10,4 |
| Taxtako`pir | 15,8 | 16,3 | 6,2 | 4,7 | 9,6 | 11,6 |
| To`rtko`l | 17,9 | 18,9 | 4,3 | 3,5 | 13,6 | 15,4 |
| Xo`jayli | 18,0 | 16,0 | 4,1 | 4,7 | 13,9 | 11,3 |
| Chimboy | 17,4 | 17,5 | 5,1 | 4,1 | 12,3 | 13,4 |
| Shumanay | 13,9 | 11,1 | 3,0 | 3,2 | 10,9 | 7,9 |
| Ellikqal`a | 20,3 | 19,4 | 3,7 | 3,3 | 16,6 | 16,1 |

**Nikohlar va ajralishlar.** 2018 yil yanvar`-martda FHDYo organlarida 4164 ta nikohlar va 336 ta ajralishlar ro`yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 9,2 ta nikoh (2017 yilning tegishli davrida – 8,4 ta) va 0,7 ta ajralishlar (2017 yilning tegishli davrida – 0,7 ta) to`g`ri keldi.

**Migratsiya.** Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2018 yilning yanvar`-mart oylarida respublika bo`yicha ko`chib kelganlar soni 3061 kishini, shu davr mobaynida ko`chib ketganlar soni esa 3831 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig`i minus 770 kishiga (2017 yilning shu davrida - minus 929 kishi) teng bo`ldi. Eng katta minus qoldiqlar Chimboy ( minus 168), Kegeyli (minus 141) Qorao`zak (minus 108), va tumanlarida kuzatildi.

**Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni**

*(yanvar`-mart oylarida, birlik)*

| | *Tuzilgan nikohlar* | | *Nikohdan ajralishlar* | |
|---|---|---|---|---|
| | *2017y.* | *2018y.* | *2017y.* | *2018y.* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Qoraqalpog`iston Respublikasi** | **3748** | **4164** | **328** | **336** |
| Nukus sh. | 468 | 529 | 74 | 77 |
| *tumanlar:* | | | | |
| Amudaryo | 405 | 503 | 24 | 23 |
| Beruniy | 532 | 619 | 30 | 47 |
| Qonliko`l | 93 | 95 | 8 | 7 |
| Qorao`zak | 90 | 91 | 9 | 8 |
| Kegeyli | 158 | 161 | 14 | 20 |
| Qo`ng`irot | 239 | 218 | 37 | 20 |
| Mo`ynoq | 47 | 40 | 5 | 4 |
| Nukus | 99 | 108 | 8 | 7 |
| Taxiatosh | 129 | 142 | 17 | 15 |
| Taxtako`pir | 84 | 100 | 4 | 3 |
| To`rtko`l | 496 | 533 | 32 | 27 |
| Xo`jayli | 214 | 247 | 20 | 31 |
| Chimboy | 202 | 274 | 13 | 22 |
| Shumanay | 95 | 91 | 12 | 10 |
| Ellikqal`a | 397 | 413 | 21 | 15 |

**2018 yil yanvar`-martda aholining tabiiy harakati**

*har 1000 kishiga*




**Ish bilan ta`minlangan aholi soni**

*(1aprel` holatiga, kishi)*

*2018 y*

Bandlikka ko`maklashuvchi markazlariga murojaat qilgan fuqarolardan 4992 nafari (barcha murojaat etganlarning 65,8 foizi) ishga joylashtirildi. Ayniqsa ushbu ko`rsatkich, Qo`ng`irot (murojaat etganlarning 81,0 foizi), Beruniy (78,3 foiz,) Xo`jayli (72,9 foiz),  Nukus shahri (72,7 foiz), To`rtko`l (70,4 foiz), va Taxiatosh (70,1 foiz), tumanlarida yuqori darajada bo`ldi.

*Ko'rib chiqildi:*